

YEVROPA TARIXSHUNOSLIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Fargʻona davlat universiteti Tarix fakulteti

Jahon tarixi kafedrası dotsenti, PhD

M.Maxmudova

Tarix yoʻnalishi 4-kurs talabasi

Ibroximova Saidabonu Jahongir qizi

maxmudovamuazzamxon1982@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yevropa tarixshunosligining Antik davrdan to hozirgi kungacha boʻlgan shakllanish va rivojlanish bosqichlari tizimli tahlil qilinadi. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi ilk tarixiy yozuvlar, Oʻrta asrlarning xristian teologiyasi taʼsiridagi xronikalari, Uygʻonish va Maʼrifatparvarlik davridagi dunyoviy-tanqidiy yondashuvlar hamda XIX – XX asrlardagi ilmiy tarixshunoslik maktablari (jumladan, Annalchilar maktabi) evolyutsiyasi yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Yevropa tarixshunosligi, Antik davr, xronikalar, Uygʻonish davri, Maʼrifatparvarlik, Leopold fon Ranke, Annalchilar maktabi, tarixiy metod.

Аннотация

В данной статье проводится системный анализ этапов формирования и развития европейской историографии от античности до наших дней. Освещаются первые исторические труды Древней Греции и Рима, хроники Средневековья под влиянием христианской теологии, светско-критические подходы эпохи Возрождения и Просвещения, а также эволюция научных исторических школ XIX–XX веков (включая школу «Анналов»).

Ключевые слова: европейская историография, античность, хроники, эпоха Возрождения, Просвещение, Леопольд фон Ранке, школа «Анналов», исторический метод.

Abstract

This article systematically analyzes the stages of formation and development of European historiography from Antiquity to the present day. It highlights the early historical writings of Ancient Greece and Rome, the chronicles of the Middle Ages influenced by Christian theology, the secular-critical approaches of the Renaissance and Enlightenment, and the evolution of scientific historical schools in the 19th and 20th centuries (including the Annales School).

Keywords: European historiography, Antiquity, chronicles, Renaissance, Enlightenment, Leopold von Ranke, Annales School, historical method.

Tarixni anglash va o‘tmish voqealarini tizimli ravishda yozib qoldirish insoniyat madaniyatining ajralmas qismidir. Yevropa tarixshunosligi o‘zining ming yillik taraqqiyoti davomida oddiy afsona va rivoyatlardan tortib, murakkab tahliliy fanga qadar bo‘lgan ulkan yo‘lni bosib o‘tdi. Bugungi kunda Jahon tarix fani metodologiyasining asosini aynan Yevropada shakllangan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Yevropa tarixshunosligining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish tarix fani qanday qilib voqealar xronikasidan jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va inson tafakkurini qamrab oluvchi yaxlit ijtimoiy fanga aylanganini tushunish imkonini beradi. O‘tmish mutafakkirlarining tarixiy jarayonlarga munosabati davr siyosati va falsafasi bilan qanchalik bog‘liq bo‘lganligi e‘tiborga molikdir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Yevropa tarixshunosligining shakllanishidagi asosiy burilish nuqtalarini va yirik tarixiy maktablarning fanga qo‘shgan hissasini yoritib berishdir.

Yevropa tarixshunosligining taraqqiyotini bir nechta yirik bosqichlarga ajratish mumkin. Ularning har biri jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlar va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllangan:

Antik davr tarixshunosligi: Yevropada tarix fani Qadimgi Yunoniston va Rimda shakllana boshladi. Gerodot o‘z asarlarida voqealarni sabab va oqibatlarini o‘zaro bog‘lab ko‘rsatishga hamda xalqlarning urf-odatlarini, an‘analarini yozib qoldirishga harakat qildi. Uning 9 tomdan iborat “Tarix” asari nafaqat yunon-fors urushlarini, balki turli xalqlarning madaniyati, dini va ijtimoiy tuzilishini ham qamrab olgan birinchi keng qamrovli tarixiy asar hisoblanadi[1:112-134]. Fukidid esa Peloponnes urushi misolida tarixda ilohiy kuchlarning aralashuvini inkor etib, inson omili, siyosiy manfaatlarni birinchi o‘ringa olib chiqdi. U Gerodotdan farqli ravishda voqealarning guvohlari bergan ko‘rsatmalarni tanqidiy tahlil qildi va faktlarni haqiqatligini tekshirdi, bu esa zamonaviy tarixiy metodning asosiy tamoyillarini belgilab berdi[2: 23-45].

O‘rta asrlar tarixshunosligi: Rim imperiyasi qulagandan so‘ng xristian dinining asosiy mafkuraga aylanishi, cherkovning hukmronligi tarix yozishni tubdan o‘zgartirdi. Bu davrda dunyoning markazida xodoning irodasi ustuvor bo‘ldi. Avreliy Avgustinning “Xudo shahri to‘g‘risida”gi asarida tarix ilohiy reja sifatida yoritildi. Uning qayd etishicha, dunyodagi barcha voqealar Xudoning irodasi bilan sodir bo‘ladi va insoniyat tarixi “Yer shahri” va “Xudo shahri” o‘rtasidagi kurashdan iboratdir[3].

O‘rta asr tarixchilari voqealarni tanqidiy tahlil qilishdan ko‘ra, sodir bo‘lgan hodisalarni annallar va xronikalar tarzida qayd etish bilan cheklandilar. Bu davrda tarix yozish bilan cherkov xodimlari va saroy tarixchilari shug‘ullanganlar. Anallar – bu har yilgi voqea va hodisalarni xronologik tartibda qayd etib boruvchi yilnoma (solnoma) hisoblanadi. Xronika esa adabiy janr hisoblanib, bo‘lib o‘tgan voqealarning tarixan izchil bayonini o‘z ichiga oladi.

Masalan, Beda Venerabilisning “Angliya cherkovi tarixi” asarida voqealarni xronologik tartibda bayon etdi, milodiy yil hisobini tarixiy yozuvda keng joriy etdi[4].

Uyg‘onish (Renessans) davri: XIV – XVI asrlarda insonparvarlik (gumanizm) g‘oyalarining yoyilishi tarixshunoslikni asta-sekin cherkov ta’siridan xalos etdi. Gumanizm davrining eng yorqin vakillaridan Nikkolo Makiyavelli, Franchesko Gvichchardini kabi mutafakkirlar tarix xudonong irodasi bilan emas, balki insonlar va ularning faoliyati natijasida yaratilishini bayon qildilar[5:56-78]. Makiyavellining “Florensiya tarixi” va “Hukmdor” asarlarida davlat boshqaruvi, diplomatiya, jamiyat qonuniyatlarini tahlil qilingan.

Tarixiy manbalarni tanqidiy o‘rganish va soxta hujjatlarni aniqlash usullari ilk bor aynan shu davrda paydo bo‘ldi. Lorenzo Valla 1440-yilda mashhur bo‘lgan va Papa hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan “Konstantin sovg‘asi” hujjatining soxta ekanligini filologik tahlil orqali isbotlab, tarixiy manbashunoslikda inqilob qildi[6:34-52]. Bu yutuq keyinchalik ilmiy tarixshunoslikning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi.

Ma‘rifatparvarlik davri (XVIII asr): Volter, Sharl Lui de Monteske va Edvard Gibbon kabi faylasuf-tarixchilar tarixni aql-idrok (ratsionalizm) nuqtai nazaridan o‘rgana boshladilar. Ular nafaqat hukmdorlar va davlatlar tarixini, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini o‘rganishga kirishdilar[7:89-112]. Volter “Sivilizatsiya va madaniyat tarixi” yo‘nalishlarini fanga olib kirdi. Uning “Xalqlarning urf-odatlariga haqida insho” asari Yevropadan tashqari Sharq mamlakatlari tarixini ham qamrab olgan birinchi universal tarixiy asarlardan biri hisoblanadi.

Edvard Gibbonning “Rim imperiyasining tanazzulga yuz tutishi va qulashi tarixi” (1776-1788) asari esa nafaqat faktlarning mukammal to‘plami, balki tarixiy jarayonlarning sabab-oqibat tahlilining yuksak namunasi bo‘ldi. Gibbon Rimning qulashini nafaqat harbiy omillar, balki iqtisodiy inqiroz, ma‘naviy tanazzul va diniy omillar bilan izohladi[8:15-28].

XIX asr tarixshunosligi va tarix fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi: Bu davrda Yevropada, xususan Germaniyada ilmiy-tanqidiy tarixshunoslik maktabi shakllandi. Leopold fon Ranke “tarix qanday bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha yozilishi kerak” (wie es eigentlich gewesen) degan tamoyilni ilgari surdi hamda faqat arxiv hujjatlariga asoslangan tadqiqotlar davrini boshlab berdi[9:57].

XX asr tarixshunosligi va Annalchilar maktabi: Birinchi jahon urushidan so‘ng siyosiy va harbiylashgan tarix inqirozga yuz tutdi. Fransiyada Mark Blok va Lyusen Fevr asos solgan “Annalchilar maktabi” fanda haqiqiy inqilob qildi. Ular an‘anaviy “voqealar tarixi” (podshohlar xronikasi) dan voz kechib, “muammo tarixi”ni – iqtisodiyot, demografiya, xalq mentaliteti va tabiatning insoniyatga ta’sirini uzoq muddatli davr doirasida o‘rganishni joriy qildilar[10:45-67]. Tarix, sotsiologiya,

geografiya va psixologiyaning o‘zaro integratsiyasi aynan shu maktab hissasi hisoblanadi.

Yevropa tarixshunosligi uzoq va zalvorli evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. Antik davrda ma’lum ma’noda falsafa va adabiyotning bir qismi hisoblangan qadimiy yozuvlar O‘rta asrlarda xronikachilikka, Uyg‘onish va Ma’rifatparvarlik davrida esa tizimli siyosiy-ijtimoiy tahlilga aylandi. XIX asrda tarix fani ilmiy asoslangan fanlar qatoriga chiqdi. XX asrdagi yondashuvlar esa uni nafaqat davlatlar, balki butun insoniyat hayotining, turmush tarzi va tafakkurining ko‘p qirrali ko‘zgasiga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Барг М.А. Эпохи и идеи: Становление историзма. – Москва: Мысль, 1987. – С. 112-134.
2. Iggers G. G. *Historiography in the Twentieth Century: From Scientific Objectivity to the Postmodern Challenge*. – Wesleyan University Press, 1997. – P. 23-45.
3. Augustine. *The City of God*. Translated by Henry Bettenson. – Penguin Classics, 2003. – Book XVIII, Ch. 1-5.
4. Bede. *Ecclesiastical History of the English People*. Edited by Judith McClure and Roger Collins. – Oxford University Press, 1994. – Introduction, pp. xv-xxviii.
5. Skinner, Quentin. *Machiavelli*. – Oxford University Press, 1981. – P. 56-78.
6. Grafton, Anthony. *Forgers and Critics: Creativity and Duplicity in Western Scholarship*. – Princeton University Press, 1990. – P. 34-52.
7. O’Brien, Karen. *Narratives of Enlightenment: Cosmopolitan History from Voltaire to Gibbon*. – Cambridge University Press, 1997. – P. 89-112.
8. Gibbon, Edward. *The History of the Decline and Fall of the Roman Empire*. Vol. I. – Penguin Classics, 1994. – Preface, pp. 15-28.
9. Ranke, Leopold von. *The Secret of World History: Selected Writings on the Art and Science of History*. Edited and translated by Roger Wines. – Fordham University Press, 1981. – P. 57.
10. Bloch, Marc. *The Historian’s Craft*. Translated by Peter Putnam. – Manchester University Press, 1992. – P. 45-67.